

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗІRLІГІ

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI



## IQTISODIY TAHLIL

FANINING O'QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 400000 - Biznes, boshqaruv va huquq

**Ta'lim sohasi:** 410000 - Biznes va boshqaruv

**Ta'lim yo'nalishi:** 60410800 - Statistika (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

<b>Fan/modul kodi</b> ECOANA6	<b>O'quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr</b> 4	<b>Kreditlar</b> 6	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 6	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Iqtisodiy tahlil</b>	90	90	180
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – boshqaruv, moliyaviy va investitsion qarorlar qabul qilish uchun xo'jalik subyektlarining moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatini, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini, moliyaviy holatini hamda ularning o'zgarishlarini, o'zgarishlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, hisob-kitob qilish, baholash yo'llarini o'rgatish.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarda xo'jalik subyektlarining moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish holatiga, ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga, iqtisodiy holatiga obyektiv baho berish, bu borada yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish va foydalanilmagan imkoniyatlarni ko'rsatib berish hamda ularni amaliyatga tadbiq etish bo'yicha ko'nikma va malakani shakllantirish.</p>			
	<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Iqtisodiy tahlilning predmeti, asosiy vazifalari va prinsiplari.</b></p> <p>Tahlil (analiz) va sintez hodisa va jarayonlarni batafsil o'rganishning asosiy yo'li ekanligi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik subyektlarini samarali boshqarishda tahlilning roli. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti. Subyektning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik. Moliyaviy holat. Ichki va tashqi omillar. Ko'rsatkichlar tizimi. Iqtisodiy tahlilning maqsadi hamda vazifalari. Iqtisodiy tahlilning asosiy prinsiplari. Fanlar tizimida Iqtisodiy tahlilning o'rni.</p> <p><b>2-mavzu. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullari.</b></p> <p>Iqtisodiy tahlil fanining metodi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Iqtisodiy tahlilda omillar tizimi hamda modellar, iqtisodiy modellarning turlari. Stoxastik va determinantlashgan modellar. Iqtisodiy tahlilning oddiy-an'naviy usullari. Taqqoslash, o'rtacha va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, mutloq va nisbiy farqlar, indeks usullarining tahlilda qo'llanilishi.</p> <p>Iqtisodiy tahlilda iqtisodiy matematik usullarni qo'llashning zaruriyati. Iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalariga ta'sir etuvchi omillarni baholashda integral va logarifm usullaridan foydalanish. Iqtisodiy masalalarning maqbul</p>			

yechimini aniqlashda matematik programmalashtirish usullaridan foydalanish. Iqtisodiy tahlilda korrelyatsion va regression tahlil, o‘yin nazariyasi va nazariy xizmat ko‘rsatish usullarining qo‘llanilishi. Evrestik tahlil. Tahlil usullarini takomillashtirish masalalari.

### **3-mavzu. Iqtisodiy tahlilning turlari, tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta’minlash.**

Iqtisodiy tahlilning turlari. Iqtisodiy tahlilning turlar bo‘yicha tasniflanishi va uning mezonlari. Iqtisodiy tahlilni mazmuniga, davriga, obyekti va subyektlariga, tarmoqlar bo‘yicha, kengaytirilgan ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha, kompyuterlashtirish darajasi bo‘yicha, ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha, o‘rganilayotgan obyektni qamrab olish darajasiga ko‘ra turlari va ularni tavsifi. Xo‘jalik subyektlarida tahlil ishlarini tashkil qilish. Tashqi va ichki tahlil. Tahlilni o‘tkazish bosqichlari. Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish. Tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlар va ilg‘or g‘oyalarni amaliyatga tadbiq etish.

Tahlil uchun kerakli manbalar sistemasi va uning turlari. Iqtisodiy, huquqiy, texnik, ekologik va boshqa manbalar to‘g‘risida tushunchalar.

Iqtisodiy manbalarning turlari va ularni tashkil qilishning asosiy tamoyillari (prinsiplari): haqqoniylit, umumiylig, bog‘liqlik, tezkorlik, tejamkorlik va keraklilik tamoyillariga amal qilishlik. Tahlil uchun kerakli manbalarga qo‘yiladigan talablar. Iqtisodiy tahlilning axborot manbasini to‘g‘riligini tekshirish. Iqtisodiy tahlilda axborot texnologiyalarining qo‘llanishi.

### **4-mavzu. Xo‘jalik subyektlarining marketing faoliyatida tahlil.**

Marketing tizimida iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi va uning axborot manbalari. Marketing tizimidagi tahlil turlari va ularning asosiy usullari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik subyektlari mahsuloti hamda xizmatiga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganishning ahamiyati. Talab va taklifni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi. Xo‘jalik subyektlari mahsuloti va xizmatiga bo‘lgan talabga ta’sir etuvchi omillarning tahlili. Tovar va korxona baho siyosatining tahlili. Raqobat darajasi ko‘rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar. Korxona mahsulotining raqobatbardoshligi tahlili.

### **5-mavzu. Xo‘jalik subyektlarining mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlili.**

Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Mahsulot hajmini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi.

Mahsulot ishlab chiqarish(ish bajarish, xizmat ko‘rsatish)ning tashkiliy- texnik darajasining tahlili. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi dinamikasini tahlili. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashning ahamiyati. Mahsulotlar tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlar tahlili. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti tahlili. Mahsulot

ishlab chiqarish maromiyligi tahlili. Mahsulot(ish, xizmat) kritik hajmi hamda ishlab chiqarish leveriji tahlili.

Mahsulotlarni sotish bo‘yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishini tahlili. Sotilgan mahsulot sifatining tahlili. Mahsulot ishlab chiqarsh hamda sotish hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

#### **6-mavzu. Xo‘jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.**

Xo‘jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan ta’minlanganligini o‘rganishning ahamiyati, mazmuni va tahlilning vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili. Aktiv va passiv asosiy vositalar tahlili. Asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko‘rsatkichlarini tahlili. Asosiy vositalarni texnik yangilashning ahamiyati.

Asosiy vositalar bilan ta’minlanganlik va qurollanganlikni tahlili. Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarining tahlili. Fond qaytimi va fond sig‘imining tahlili. Xo‘jalik subyektlarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasining tahlili. Mashina va jihozlardan vaqt va quvvat bo‘yicha foydalanishning tahlili. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

#### **7-mavzu. Xo‘jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishini tahlili.**

Xo‘jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta’minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Moddiy resurslar bilan ta’minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini xarakterlaydigan ko‘rsatkichlar tizimi. Xo‘jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishi hamda zaxira holatining tahlili. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini tahlili. Material qaytimi va material sig‘imining tahlili. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida materiallardan samarali foydalanishning mahsulot tannarxini pasaytirishdagi ahamiyati.

#### **8-mavzu. Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik va mehnat unumdoorligi tahlili.**

Xo‘jalik subyektlarining mehnat resurslari bilan ta’minlanganligini tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Mehnat resurslari tarkibi va ularning dinamikasini tahlili. Xodimlar harakatining tahlili. Xodimlar qo‘nimsizligi tahlili. Ish vaqtidan samarali foydalanish va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.

Mehnat unumdoorligi dinamikasini tahlili. Ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdoorligiga ta’sir etuvchi omillar va ularning tahlili. Ishchilarining mehnat unumdoorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mehnat unumdoorligini oshirishning mahsulot tannarxini

pasaytirishdagi o'rni. Mehnat sig'imining tahlili. Mahsulot hajmiga mehnat omillari ta'sirining tahlili.

### **9-mavzu. Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili.**

Xo'jalik subyektlarining ishlab chiqarish va davr xarajatlarni tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati. Xarajatlarni turkumlash: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, "o'zgaruvchan" va "o'zgarmas" xarajatlar tahlili. Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va dinamikasining tahlili. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha tahlili. Mahsulot tannarxining tahlili. Mahsulot tannarxiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Moddiy xarajatlar va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Mehnat haqi xarajatlarining tahlili. Ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Xarajatlar samaradorligi tahlili.

Davr xarajatlari tarkibi va dinamikasining tahlili. Sotish xarajatlari tahlili. Ma'muriy xarajatlar tahlili. Boshqa operatsion xarajatlar tahlili. Davr xarajatlarini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **10-mavzu. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlari va moliyaviy holat tahlili.**

Xo'jalik subyektlarining moliyaviy holati tahlilining ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Buxgalteriya balansi hamda uning gorizontal va vertikal tahlili. Balans aktiv moddalarining tahlili. Balans passiv moddalarining tahlili.

Zahira va xarajatlarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanganligini tahlili. Xo'jalik subyektlarining moliyaviy barqarorligini tahlili. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili. Xo'jalik subyektlarining to'lov qobiliyatini tahlili. Xo'jalik subyektining kreditga layoqatlilagini tahlili. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy barqarorlikni yaxshilash chora-tadbirlari.

Likvidlilik ko'rsatkichlari. Balans likvidliligin tahlili. Joriy va istiqbolli likvidlik koeffitsiyentlarini tahlili. Joriy aktivlar aylanishini tahlili. Moliyaviy holat tahlilining natijalarini umumlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash. Xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini kompleks baholash.

### **11-mavzu. Moliyaviy natijalar tahlili.**

Moliyaviy natijalarni tahlil qilishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Umumiyl moliyaviy natijalar, ularning tarkibi va tuzilishini tahlili. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili.

Asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari tahlili. Moliyaviy faoliyatning daromadlari va xarajatlari tahlili. Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili. Soliq to'langunga qadar foyda tahlili. Byudjetga to'lovlar va ajratmalarining tahlili. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Rentabellik

ko'rsatkichlari va ularga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **12-mavzu. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili.**

Xo'jalik subyektlarining debitorlik va kreditorlik qarzları tahlilining ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining xo'jalik subyektlari moliyaviy holatiga ta'siri.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiyyajtini tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining muddatlari bo'yicha tahlili.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanligini tahlili. Qarzlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **13-mavzu. Pul oqimlarining tahlili.**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash xo'jalik subyektlarining pul mablag'lari bilan ta'minlanganligi va ularning oqimlarini o'rganishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning asosiy axborot manbalari. Xo'jalik subyektining umumiyyajtini pul mablag'lari oqimining tahlili. Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatini tahlili. Moliyaviy faoliyatdan pul oqimining tahlili. Investitsion faoliyatdagi pul oqimlari tahlili. Pul oqimlarini bashoratlash. Valyuta mablag'lari harakatini tahlili. Pul mablag'lari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

### **14-mavzu. Xo'jalik subyektlarining xususiy kapitali tahlili.**

Raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini tahlil etishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Xususiy kapitalning xo'jalik subyektlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni. Xususiy kapitalni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tasnifi. Xususiy kapitalning tarkibi va dinamikasining tahlili. Ustav, qo'shilgan va zaxira kapitallarining o'zgarishi tahlili. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni tahlili. Xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili. Moliyaviy leverij tahlili. Moliyaviy inqirozga qarshi kurashishda xususiy kapitalni ko'paytirishning ahamiyati.

### **15-mavzu. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari.**

Moliyaviy tahlilni tashkil etish, yuritish, xulosalarni shakllantirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi meyoriy asoslar. Moliyaviy tahlilni tashkil etish shakllari. Moliyaviy tahlilni tashkil etishda korxonaning tarmoq xususiyati, faoliyat ko'لامи, raqobatdagi o'rni kabi jihatlarini hisobga olish. Moliyaviy tahlil: ichki moliyaviy tahlil, tashqi moliyaviy tahlil. Moliyaviy tahlil bosqichlari. Moliyaviy tahlilning axborot bazasi (tahlil ob'ektlari haqidagi ma'lumotlar), ularning ochiqligi va oshkoraliqi. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan boshqa axborotlar.

### **16-mavzu. Kreditga layoqatlik tahlili.**

Kreditga layoqatlik tahlilining mazmuni, maqsadi va vazifalari. Kreditga layoqatlikning tavsifi. Kreditga layoqatlikni baholash va tahlil qilishning asosiy usullari: ekspert baholash va ballik (skoring)baholash tizimi. Kreditga layoqatlikni baholashda tijorat banklarining kredit siyosatining o‘ziga xos jihatlari. Korxonaning ishonchligini baholash. Raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish qobiliyatini tahlili. Daromad tahlili. Kredit resurslari maqsadligini tahlili. Kreditga layokatlikni moliyaviy koeffisiyentlarda baholash. Kreditni ta’minlanganligini tahlili.

### **17-mavzu. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish.**

Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni baholashning ob’ektiv zarurligi, uni tahlil qilish maqsadi va vazifalari. Iqtisodiy nochorlik tahlilining axborot manbalari. Bankrotlikni aniqlashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi va ularning qiyosiy tahlili. Iqtisodiy nochorlik (bankrotlik)ni oldini olish chora-tadbirlari.

### **18-mavzu. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish.**

Raqobatdosh iqtisodiyotda xo‘jalik sub’ektlarining moliyaviy holatini reyting baholashning zaruriyati, tahlil maqsadi, mazmuni va vazifalari. Korxonalar faoliyati reytingining turlari, mohiyati va baholash usullari. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholashda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi va ularni aniqlash usullari. Korxonalar moliyaviy holatni va samaradorligini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkichlar bo‘yicha reytingini aniqlash va ularning qiyosiy tahlili. Moliyaviy holatni reyting baholash bo‘yicha xalqaro tajribalar va ulardan mamlakatimiz tahlil amaliyotida foydalanish imkoniyatlari.

### **19-mavzu. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash.**

Moliyaviy hisobot elementlarini axamiyati, maqsadi va tahlil vazifalari. Aktivlar, kapital va majburiyatlarni bashoratlash. Daromadlar va xarajatlarni bashoratlash: sotish hajmi, mahsulot tannarxi, operatsion daromad va xarajatlar, foyda hajmi va rentabellik darajalarini bashoratlash. Pul mabalag‘lari naqdligini bashoratlash. Bankrotlikni bashoratlash. Bashorat ko‘rsatkichlariga ichki va tashqi omillar ta’siri. Bashorat ko‘rsatkichlariningehtimolligi va ishonchliliginibaholash. Bashoratlashdagi kamchiliklar.

## **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar (fan bo‘yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo‘ljallanmagan)**

Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Iqtisodiy tahlilning predmeti, asosiy vazifalari va prinsiplari.
2. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullari.
3. Iqtisodiy tahlilning turlari, tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta’minlash.
4. Xo‘jalik subyektlarining marketing faoliyatida tahlil.

- |  |   |
|--|---|
|  | <p>5. Xo‘jalik subyektlarining mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlili.</p> <p>6. Xo‘jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.</p> <p>7. Xo‘jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishini tahlili.</p> <p>8. Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik va mehnat unumдорligi tahlili.</p> <p>9. Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili.</p> <p>10. Buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari va moliyaviy holat tahlili.</p> <p>11. Moliyaviy natijalar tahlili.</p> <p>12. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili.</p> <p>13. Pul oqimlarining tahlili.</p> <p>14. Xo‘jalik subyektlarining xususiy kapitali tahlili.</p> <p>15. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari.</p> <p>16. Kreditga layoqatlik tahlili.</p> <p>17. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish.</p> <p>18. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish.</p> <p>19. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash.</p> |
|--|---|

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademguruhga bir o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Iqtisodiy tahlilning predmeti, asosiy vazifalari va prinsiplari.
2. Iqtisodiy tahlilning metodi va usullari.
3. Iqtisodiy tahlilning turlari, tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta’minlash.
4. Xo‘jalik subyektlarining marketing faoliyatida tahlil.
5. Xo‘jalik subyektlarining mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish hajmini tahlili.
6. Xo‘jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.
7. Xo‘jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta’minlanishini tahlili.
8. Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik va mehnat unumдорligi tahlili.
9. Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili.
10. Buxgalteriya balansi ko‘rsatkichlari va moliyaviy holat tahlili.
11. Moliyaviy natijalar tahlili.
12. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili.
13. Pul oqimlarining tahlili.
14. Xo‘jalik subyektlarining xususiy kapitali tahlili.
15. Moliyaviy tahlilni tashkil etish va axborot manbalari.
16. Kreditga layoqatlik tahlili.
17. Korxonalar iqtisodiy nochorligi (bankrotligi)ni baholash va tahlil qilish.

	<p>18. Korxonalar moliyaviy holatini reyting baholash va tahlil qilish.</p> <p>19. Moliyaviy hisobot elementlarini bashoratlash.</p> <p>20. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqaruv tahlilining tutgan o‘rni, ahamiyati va vazifalari.</p> <p>21. Iqtisodiy tahlilning oddiy-an’anaviy usullari va ularning tahlilni o‘tkazishdagi ahamiyati.</p> <p>22. Tahlilning iqtisodiy-matematik usullari va ularning tahlil jarayonida qo‘llanilishi.</p> <p>23. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish va uning axborot manbalari.</p> <p>24. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlili.</p> <p>25. Mahsulot sotish hajmi va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili.</p> <p>26. Mehnat sig‘imini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishni tahlili.</p> <p>27. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti hajmining tahlili.</p> <p>28. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot turlarini yangilashning ahamiyati.</p> <p>29. Mahsulot sifati va raqobatga bardoshliligini tahlili.</p> <p>30. Firma va kompaniyalarning mehnat resurslari bilan ta’milanishini tahlili.</p> <p>31. Kadrlar (xodimlar) qo‘nimsizligini tahlili.</p> <p>32. Ish vaqtidan foydalanishni tahlili.</p> <p>33. Mehnat unumdarligining darajasi va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlili.</p> <p>34. Kompaniyani moddiy resurslar bilan ta’milanishi va tovar-moddiy zahiralar holatining tahlili.</p> <p>35. Ishlab chiqarishda moddiy resurslardan foydalanishni tahlili.</p> <p>36. Xorijiy mamlakatlar moliyaviy hisobotini tahlil etishning o‘ziga xos xususiyatlari.</p> <p>37. Kompaniyaning to‘lov qobiliyatini tahlili.</p> <p>38. Likvidlilik ko‘rsatkichlari.</p> <p>39. Balans likvidligini tahlili.</p> <p>40. Joriy aktivlar aylanishi va ularning iqtisodiy samaradorligini tahlili.</p> <p>41. Moliyaviy natijalarning shakllanishi, ularning tarkibi va dinamikasini tahlili.</p> <p>42. Mahsulot sotishdan ko‘rilgan yalpi foyda va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili.</p> <p>43. Rentabellik turlari va ularga ta’sir etuvchi omillarning tahlili.</p> <p>44. Mahsulot turlari bo‘yicha rentabellikni tahlili.</p> <p>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan individual topshiriqlar variantlarini ishlab topshirishlari tavsiya etiladi.</p>
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- iqtisodiyot subyektlari faoliyatini tahlil qilishning asosiy tamoyillarini, moliyaviy va boshqaruv tahlilining oddiy-an’anaviy hamda iqtisodiy-matematik usullarini, iqtisodiyot subyektlarida tahlil ishlarini tashkil qilishni, tahlil uchun kerakli manbalar sistemasini to‘plash va foydalana olishni <b>bilishi kerak</b>;</li> <li>- iqtisodiyot subyektlarida mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmiga baho berish, mahsulot (ish, xizmatlar) sotish hajmlarini tahlil qilish,</li> </ul>

	<p>boshqaruv qarorlarini qabul qilishda moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanish holatiga baho berish, mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish uchun sarflangan tannarx xarajatlari va davr xarajatlarini tahlil qilish, iqtisodiyot subyektlari moliyaviy va iqtisodiy holatiga umumiy baho berish, moliyaviy natijalar va ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, debitorlik va kreditorlik qarzlariga baho berish, pul oqimlarini to'g'ri va egri uslub orqali <b>tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</b>;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- iqtisodiyot subyektlarining to'lov qobiliyatini baholash, balans likvidligini aniqlash, joriy aktivlar aylanishini tahlil qilish, korxonaning moliyaviy holati tahlilining natijalarini umumlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash, rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash, debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanuvchanligini baholash, asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining baholash, asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash, pul mablag'lari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash, xususiy kapitalni ko'paytirish bo'yicha mayjud imkoniyatlarni aniqlash <b>malakalariga ega bo'lishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;</li> <li>- esse, tezis va maqolalar yozish;</li> <li>- vaziyatli topshiriqlarni (keys-study) yechish;</li> <li>- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;</li> <li>- muhokamalarda ishtirok etish;</li> <li>- kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>- loyiha ishi bajarish;</li> <li>- mustaqil ishlarni bajarish;</li> <li>- taqdimot tayyorlash;</li> <li>- turli darajadagi testlarni yechish;</li> <li>- so'rovlар o'tkazish.</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy hamda oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirishi zarur.</p>
6.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Мельник М.В., Поздеев В.Л. Экономический анализ: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020. -261 с.</li> <li>2. Pardayev M.K. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, 2020. - 588 b.</li> <li>3. Raximov M.Y., Qalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. - 736 b.</li> <li>4. Xasanov B.A., Raximov M.Y., Muqumov Z.A. va boshqalar. Moliyaviy tahlil. Darslik. - T.: IQT1SODIYOT, 2020. - 736 b.</li> </ol>

	<p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <p>5. Пардаев М.К., Абдукаримов И.Т., Пулатов М.Э., Усманова Д.К. Финансовый анализ предприятий. Учебное пособие но опите РФ и РУз. - Т.: "Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи" ДУК, 2020. - 768 бет.</p> <p>6. Raximov M.Y., Mavlonov N.N., Qalandarova N.N. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2020. - 517 b.</p> <p>7. Шадрина Г.В. Теория экономического анализа: Учебник и практикум. Москва: Юрайт, 2020. -2 0 8 с.</p> <p>8. Сагдиллаева З.А., Юлдашева У.А., Алимов Б.Б. Финансовый анализ. Учебник -Т.: Иқтисод-Молия, 2019. - 444 с.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>1. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.</p> <p>2. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi hukumat portalı.  <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p>
7.	<b>Fanning o'quv dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan.</b>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>Sh.A.Turobov - "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD).</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>S.Samiyev - QarMII, "Moliya" kafedrasi mudiri dotsenti, i.f.f.d. (PhD)</p> <p>S.R.Egamberdiyeva - QarMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi</p>

